
Xalqimizning rizq-nasibasi ulug' bo'ladi

Ota-bobolarimiz duoga qo'l ochganda, hamisha omborlarimiz donga to'lishi uchun ezgu niyat qilishi bejiz emas. Boisi xirmoni, omborlari donga to'la xalqning bugungi kuni farovon, ertangi kundan ko'ngli xotirjam bo'ladi. Shu yilning 11 may kuni Prezidentimiz raisligida g'allachilikdagi islohotlarning muhim bosqichiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda davlatimiz rahbari barcha zarur tashkiliy ishlar hal qilingan holda, 1 iyundan boshlab g'allani davlat tomonidan sotib olish va sotishda bozor narxlariga o'tilishini ma'lum qildi. Bu juda ham quvonarli yangilik. Chunki keyingi yillarda bug'doyning davlat xarid narxi arzon, yetishtirish xarajatlariga unchalik to'g'ri kelmas edi. Mineral o'g'it, texnika xarajatlari qimmat, ustiga ustak fermer yetishtirilgan hosilni bozor narxidan arzon sotish orqali ko'zlangan daromadga ega bo'lolmay qiynalardi. Nihoyat, fermerning yelkasiga oftob tegdi - u bundan buyon o'z mehnati samarasidan bahramand bo'ladigan bo'ldi. Prezidentimiz rahbarligida 17 may kuni o'tkazilgan tovar-xom ashyo birjasida savdolarini ko'paytirish, mahalliy korxonalar ishtirokini kengaytirish bo'yicha yig'ilishda yana bir qator tashabbuslar ilgari surildi. Yangi tizimga ko'ra, tuman hokimi g'alla yetishtiruvchi fermer va klasterlar kesimida bug'doyni birjaga olib chiqish oyma-oy rejasini ishlab chiqadi. Tuman hokimi va Savdo-sanoat palatasining tuman bo'limi ushbu fermer va klasterlarni birjada ro'yxatdan o'tkazishni tashkillashtiradi. Tadbirkorga qulay bo'lishi uchun Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limida birja savdo maydonchasi tashkil etiladi. Savdo maydonchasida tadbirkor, fermer va klasterlarga birja hujjatlarini rasmiylashtirishga ko'maklashiladi. Birja savdolarida ishtirok etishga o'qitish ishlari tashkil etilib, tadbirkor, fermerlar uchun sodda va lo'nda uslub ishlab chiqiladi. Ayni paytda 4780 gektar yerda 151 ta fermer xo'jaligi bilan hamkorlikda yetishtirilgan g'allani yig'ib olish uchun 13 ta yuqori unumli kombaynlar mavsumga to'liq shay holatga keltirib qo'yildi. Keyingi yillarda ilm-fan yutuqlari, innovatsiyalar keng joriy etilib, fermerlarimiz g'allaning har gektaridan 80, 100 sentnerdan hosil olishmoqda. Xorijdan serhosil g'alla navlari olib kelish va mahalliyashtirish orqali bu yil 2 ming gektar yerda, yaqin yillarda to'liq navlarni yangilashni maqsad qilganmiz. Buning uchun yurtimizdagi nufuzli ilmiy-amaliy markazlar bilan faol hamkorlikda ishlayapmiz. Natijada hosildorlik sifati va salmog'i yanada oshishiga erishiladi. Davlatimiz rahbarining yaqinda Farg'ona viloyatiga amalga oshirgan tashrifi chog'ida Oltiariq tumanida qishloq xo'jaligi xodimlari, klasterlar rahbarlari bilan suhbatlashdi. Bunday e'tibor va rag'bat uchun farg'onalik barcha fermerlar, g'allachilik klasterlari rahbarlari nomidan Yurtboshimizga minnatdorchilik bildirdim. Uchrashuvda yillik quvvati 20 ming tonna bo'lgan un zavodini ikki oyda ishga tushirishga va'da berdim. Hozirgi kunda qurilish-pardozlash ishlarini jadal davom etyapti. Yaqinda Turkiyaga borib, eng so'nggi rusumdagi texnologiyalarni olib kelib o'rnatish bo'yicha shartnoma imzolab keldim. Un zavodi ishga tushsa, rishtonlik 40 nafar yoshlar doimiy ish o'rniga bo'ladi. Mehnating qadr topsa, imkoniyat va imtiyozlar tufayli faoliyating tobora rivojlanib boraversa, inson yangi-yangi g'oyalar bilan yashayveradi. Demak, biz xalqimizning rizq-nasibasi ulug' bo'lishi uchun xizmatda astoydil kamarbastamiz.

Isomiddin O'RINBOEV, Farg'ona viloyatining Rishton tumanidagi "Qahramon" g'allachilik klasteri rahbari.

2022-05-18 14:05:34